

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

**O'ZBEKISTON:
TIL VA MADANIYAT**

Lingvistika

2025 Vol. 3 (1)

www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari: Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib: Dilafruz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Sherqo'zi Qulbulov, Mahliyoxon Tuxtasinova, Ma'suma Mo'minova, Durdona Mahkamova.

Jurnal haqida ma'lumot

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“**Lingvistika**” Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. “Lingvistika” seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Lingvistika” seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief: Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary: Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbaev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsieva, Gavhar Komilova, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Sherquzi Kulbulov, Makhliyokhon Tuhtasinova, Ma'suma Muminova, Durдона Mahkamova.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Hamidulla Dadaboyev

“Nahj ul-farodis” asari va uning XIV yuzyil turkiy adabiy til soʻz boyligi taraqqiyotida tutgan oʻrni.....8

Dilafruz Muhammadiyeva

“Boburnoma” lugʻatlarining leksikografik talqini.....18

Sherzod Atamuradov

Sifatsiz tarjima ishlarini yuzaga keltiruvchi omillar.....31

Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova

Ona tili darslarida badiiy matn tashkil etishning lingvistik asoslari....44

Nargiza Imomiddinova

Xitoy tili harbiy terminologiyasi tizimida soʻz-terminlarning derivatsion xususiyatlari.....49

Sabohat Qahhorova

“Qadam+ fe'l” komponentli birliklarning maʼno tizimi va tezaurusi....66

Qudratillo Bakirov

Qadimgi turkiy tildagi vaqt maʼnoli leksemalarning leksik-semantik tadqiqi va “Devonu lugatit turk” da ifodalanishi.....76

Charos Jumaniyozova

Belgi-xususiyat semantikasini tasniflashga antroposentrik yondashuv87

Мехрибон Шамсиддинова

Преимущества и недостатки использования инновационных технологий в обучении китайскому языку97

Dildora Suyunova

Harbiy nomlar terminologiyasida maʼnodoshlik va shakldoshlik hodisalari.....109

Shodiya Qurbonova

Nutqiy akt nazariyasi yoxud kommunikativ maqsadning ifodalanishi.....116

Umriniso Pulatova

Yoshlar slengining ijtimoiy-tabaqaviy xoslanishi.....125

Maftuna Mamarasulova	
Nominatsiya jarayonining nazariy asoslari	133
Madina Akramdjanova	
Olamning lisoniy manzarasida fitonimlarning aks etishi	142
Nargiza O'ralova	
Parsellyatsiyaning o'rganilishi: ilmiy nazariyalar va tadqiqotlar.....	149
Lola Usmonova	
Lisoniy shaxs tushunchasi va unga yondosh hodisalar tadqiqi.....	157
Muxlisa Arislanova	
She'riy matnlardagi metaforalarning lingvokognitiv asoslari: nazariy va amaliy tahlil (Erkin Vohidov she'rlari misolida).....	166
Durdona Bultakova	
O'zbek nutqiy etiketida fatik birliklarning qo'llanilishi.....	177
Ozodaxon O'ktamova	
Ingliz tilidagi raqamli muloqotda xushmuomalalik strategiyalari va ularning lingvistik xususiyatlari.....	183
Niluzar Axmedova	
O'zbek va ingliz tillarida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi leksik birliklarning lisoniy qiymatini aniqlashda kontekst va madaniyatning roli.....	193

Content

Linguistics

Hamidulla Dadaboev

“Nahj al-Farâḍis” and Its Role in the Development of the XIV-Century
Turkic Literary Language Vocabulary.....8

Dilafroz Muhammadijeva

The lexicographic interpretation of the “Boburnama” dictionaries.....18

Sherzod Atamuradov

Factors that cause poor quality translation work.....31

Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova

Linguistic Foundations of Organizing Literary Texts in Mother Tongue
Lessons44

Nargiza Imomiddinova

Derivational features of word-terms in the system of military
terminology of the Chinese language49

Sabohat Qahhorova

“Qadam + fe’l” component unit’s semantic system and thesaurus.....66

Qudratillo Bakirov

Lexical-semantic study of time-meaning lexemes in the Old Turkic
language and expression in «Devanu Lugatit Turk».....76

Charos Jumaniyozova

An Anthropocentric Approach to the classification of Feature-attribute
semantics87

Mekhribon Shamsiddinova

Advantages and disadvantages of using innovative technologies in
teaching the chinese languages97

Dildora Suyunova

Phenomena of similarity in meaning and form in the terminology of
military names109

Shodiya Qurbonova

Speech act theory or expression of communicative purpose.....116

Umriniso Pulatova

The socio-stratification of youth slang.....125

Maftuna Mamarasulova

Theoretical foundations of the nomination process.....133

Madina Akramdjanova

The reflection of phytonyms in the linguistic picture of the world ...142

Nargiza O'ralova

The Study of Parcellation: Scientific Theories and Research.....149

Lola Usmonova

Study of the concept of linguistic personality and related phenomena.....157

Muxlisa Arislanova

Linguocognitive foundations of metaphors in poetic texts: theoretical and practical analysis (on the example of the poems of Erkin Vakhidov).....166

Durdona Bultakova

The use of phatic units in the speech etiquette of uzbek language.....177

Ozodaxon O'ktamova

Politeness Strategies and Their Linguistic Features in English Digital Communication183

Niluzar Akhmedova

The Role of Context and Culture in Defining the Linguistic Value of Lexical Units Expressing Human Psychological States in Uzbek and English193

Yoshlar slengining ijtimoiy-tabaqaviy xoslanishi

Umriniso Pulatova¹

Annotatsiya

Maqolada o'zbek yoshlarining nutqida slenglardan foydalanishning ijtimoiy-tabaqaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yoshlar o'rtasida keng tarqalgan sleng birliklarining qaysi ijtimoiy qatlamlarda faolroq qo'llanilishi va ular qanday kommunikativ vazifalarni bajarishi o'rganilgan. So'rovnoma va kuzatuv metodlari asosidagi ilgan ma'lumotlar statistik tahlil qilinib, slengning do'stlar, sinfdoshlar/kursdoshlar, oila a'zolari va ijtimoiy tarmoqlar muhitida qo'llanish darajasi aniqlangan. Natijalarda sleng do'stlar va tengdoshlar muloqotida ko'proq uchrashi, ijtimoiy mavqega qarab shakllanishi va internet muhitida yangi leksik birliklar paydo bo'lishida faol rol o'ynashi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, sleng yoshlar uchun shaxsiy mavqeni ifodalash, guruhga mansublikni ta'kidlash va emotsional ekspressivlikni kuchaytiruvchi pragmatik vosita sifatida xizmat qilishi aniqlangan. Tadqiqot natijalari tilshunoslikda yoshlar nutqining ijtimoiy tabaqalanishini chuqurroq o'rganishga ilmiy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: *sleng, ijtimoiy tabaqalanish, yoshlar nutqi, norasmiy muloqot, sotsiolingvistika, kommunikativ vaziyat, emotsional ifoda, sotsiolekt, zamonaviy leksika, yoshlar submadaniyati, pragmatik birlik.*

Sleng til tizimining norasmiy, kontekstga bog'liq va tez-tez yangilanib turadigan qatlamini tashkil etadi. U, avvalo, ma'lum ijtimoiy guruh a'zolari orasida shakllanib, o'sha guruh ehtiyojlari va madaniy muhitidan oziqlanadi. Yoshlar slengi doimiy ravishda o'zgarib turishi, yangilikka intilishi hamda zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy omillarga tez moslashuvi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Tilshunos olimlar ta'kidlaganidek, slengning mavjudlik muddati qisqa bo'lib, avlodlar almashinuvi bilan u ham yangilanadi. Bu jarayonni ba'zi tadqiqotchilar slengning avlodlarga bog'liqligi deb atashadi [C. Eble, 1996: 220].

Sleng ko'pincha ijtimoiy-madaniy kontekstda paydo bo'ladi

¹ Pulatova Umriniso – Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-pochta: maxsuddenovvsardorr@gmail.com

Iqtibos uchun: Pulatova U. O'zbek yoshlari slengining gender jihatdan xoslanishi. *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2025-3: 125-132.

va shu muhit bilan chambarchas bog'lanadi. Kontekst o'z kuchini yo'qotgach, unga aloqador sleng birliklari ham faol nutqdan sekin-asta chiqib ketadi. Masalan, bir davrlar O'zbekistonda mashhurlik cho'qqisiga chiqqan "Ummon" guruhi yoshlar orasida metaforik obraz sifatida ishlatilgan. Uch nafar yigit birga ketayotganida ularni "mana Ummon kelayapti" deb hazilomuz atash hollari uchragan. "Ummonchilar", "ummonchi qizlar" kabi iboralar ham shu davr yoshlari orasida keng tarqalgan bo'lib, bu hodisa guruhning yoshlar identifikatsiyasi, tashqi ko'rinish va uslubiy birlashuvini ifodalagan. Ammo vaqt o'tishi bilan guruhning mashhurligi pasaydi va unga bog'liq bo'lgan sleng ham yo'qolib ketdi.

Shunga o'xshash jarayon paxta terimi bilan bog'liq talabalar slengida ham kuzatiladi. Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun majburiy paxtaga chiqish davrida "kombayn" (ko'p paxta teruvchi talaba), "brigadircha" (faol talaba qiz), "g'isht terdi" (og'ir mehnatni istehzoli ifodalash) kabi slenglar keng qo'llangan. Biroq mustaqillikdan keyingi yillarda talabalar paxta terimiga jalb qilinmay qo'ygach, bu kabi birliklar ham nutqdan deyarli butunlay chiqib ketdi.

Texnologik taraqqiyot ham slengning tez yangilanishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, 2000-yillarda ommalashgan Nokia markasidagi tugmali telefonlar mustahkamligi sabab "g'isht telefon" deb atalgan. Shu davrda mashhur bo'lgan "Odnoklassniki" ijtimoiy tarmog'i asosida "odno", "odnochi qizlar", "odnoda o'tirish" kabi slenglar yuzaga kelgan. Keyinchalik platforma ommaviylikni yo'qotgach, unga bog'liq slenglar ham asta-sekin unutilib bordi.

Bugungi kunda esa "Instagramda o'tirish", "TikTokchi", "stori tashladi" kabi birliklar yoshlar nutqida faol uchraydi. Shuningdek, global internet madaniyatidan kirib kelgan "cringe", "trend bo'ldi", "reels qildi" kabi ifodalar ham tezkorlik bilan qo'llanmoqda. Ammo sotsiologvistiklar qayd etganidek, ijtimoiy-madaniy sharoit o'zgarishi bilan bu birliklar ham kommunikativ ahamiyatini yo'qotadi va avlodlar almashinuvi jarayonida o'rnini yangi slenglarga bo'shatadi [W. Labov, 2001: 592].

Sleng til tizimining eng tez o'zgaruvchan va norasmiy qatlamlaridan biri sifatida zamonaviy hayot sur'atiga moslashadi. U nafaqat yoshlarning kundalik muloqotida vosita, balki ularning ijtimoiy mansublik va guruhiy identifikatsiyasini ifodalovchi muhim ramz hamdir. Shu sababdan yoshlar slengini o'rganish orqali ularning jamiyatdagi stratifikatsiyasi, ijtimoiy mavqei va madaniy o'ziga xosliklarini tadqiq etish mumkin.

Ijtimoiy tabaqalanish nuqtayi nazaridan yoshlar slengi bir necha asosiy yo'nalishlarda shakllanadi:

1. Ta'lim muassasalari doirasida. Talaba va o'quvchi yoshlar orasida shakllangan sleng odatda o'quv jarayoni, darsdagi qiyinchiliklar va universitet madaniyati bilan bog'liq bo'ladi [Mattiello, 2008: 15]. Masalan, "sessiyadan yiqildi", "kreditga qoldi", "kontrakt masalasi", "tankasi kuchli" kabi iboralar talabalik hayotining o'ziga xos jihatlarini istehzoli tarzda ifodalab beradi.

2. Mehnat migratsiyasi va ishchi yoshlar nutqida. Boshqa hudud yoki xorijiy davlatlarda ishlayotgan yoshlar ko'pincha kontakt til hodisalariga asoslangan slengdan foydalanadilar. "Rabotat qilmoq", "obshaga chiqmoq", "nal qilish", "deport qilmoq" kabi ifodalar rus va boshqa tillardan o'zlashib, o'zbek yoshlarining ijtimoiy tajribasiga singib ketgan.

3. Internet va media makonidagi sleng. Onlayn faoliyat yuritayotgan blogerlar va kontent yaratuvchilar tilida ingliz tilidan kirib kelgan birliklar ustunlik qiladi: "kontent otmoq", "like bosmoq", "trendga chiqmoq", "skrinskay qilmoq" kabi ifodalar yoshlarning raqamli texnologiyalarga tez moslashuvchanligini ko'rsatadi.

4. Subkultural guruhlar tilida. Rap, k-pop, rok musiqasi, sport yoki onlayn o'yinlar atrofida shakllangan guruhlar ham o'ziga xos sleng tizimiga ega bo'ladi. Masalan, "battle qilish", "prosto bomba", "clan ochish", "gamingda yiqildi" kabi birliklar ularning ichki identifikatsiya belgisi sifatida xizmat qiladi.

Keltirilgan misollar shuni anglatadiki, sleng yoshlar nutqida faqatgina "zamonaviylik belgisi" emas, balki ijtimoiy tabaqalanishning ramziy shaklidir. Har bir ijtimoiy guruh o'z slengi orqali o'zaro tan olinadi, ijtimoiy chegaralar va "biz-u-ular" qarama-qarshiligi belgilanadi [Halliday, 1978: 122]. Bourdieu ta'kidlaganidek, til ijtimoiy maydonda kapital vazifasini o'taydigan ramziy resursdir [Bourdieu, 1991: 47]. Demak, yoshlar slengi ham ijtimoiy strukturalar, zamonaviy madaniyat va texnologik taraqqiyotning yorqin ko'zgusi sifatida qaralishi mumkin.

Shu bois, sleng tilini sotsiolingvistik hodisa sifatida o'rganish orqali nafaqat til dinamikasi, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va madaniy jarayonlarning ham ko'rinishini tahlil qilish mumkin. Bu jihatdan sleng, ayniqsa yoshlar slengi – deb atalishi ham bejizga emas chunki slengdan asosan foydalanuvchilar ham bu yoshlar hisoblanadi. Buning isbotini olib borilgan tajriba-sinov ishlarimizning natijalari ham tasdiqladi. So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning yoshi asosan 15–25 yosh oralig'ida bo'lib,

bu yoshlar slengning asosiy “yaratuvchilari” va “iste’molchilari” hisoblanadi. Shu yoshdagi guruhlar – ayniqsa maktab o‘quvchilari, kollej va oliy ta’lim muassasalari talabalari – turli kommunikativ vaziyatlarda, virtual muhitda va norasmiy muloqotda slengdan faol foydalanishadi.

Yoshlar uchun sleng oddiy aloqa vositasidan tashqari, ularning ijtimoiy-madaniy hayotida muhim rol o‘ynaydigan psixologik birlashtiruvchi mexanizmdir. Sleng orqali ular tengdoshlari bilan tezkor aloqa o‘rnatadi, o‘z guruhiga mansubligini namoyon etadi, shaxsiy mavqeini belgilaydi hamda ba’zan hazil yoki kinoya yordamida o‘z fikrini noan’anaviy tarzda ifodalaydi. Shu jihatdan, sleng nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida ham qaraladi.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari bu holatni yanada aniqroq ko‘rsatdi. “Sizningcha, slengdan qaysi ijtimoiy qatlamlar ko‘proq foydalanadi?” degan savolga berilgan javoblar asosida bir necha guruhlar ajratildi. Ulardan eng yirigi – internetdan faol foydalanadiganlar bo‘lib, 86 ta holatda aynan shu qatlam tilga olindi. Bu natija virtual muhit yoshlar slengining shakllanishi va rivojlanishida markaziy maydon bo‘lib xizmat qilayotganini anglatadi.

Demak, yoshlar slengi nafaqat norasmiy muloqot jarayonlarida, balki internet madaniyati, axborot texnologiyalari va global kommunikatsiya ta’sirida ham faol rivojlanmoqda. Masalan: slenglar tez-tez Instagram, TikTok, Telegram va YouTube va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaladi va yangi variantlar tezda avlodlar orasida ommalashadi. Like bosdi, trendda, rofl, storyga chiqdi kabi birliklar aynan internetga xos nutq birliklaridir.

Maktab o‘quvchilari (46 ta holat)

Bu guruhda til o‘zgaruvchanlikka va ijodkorlikka nisbatan sezgirlik yuqori. Maktab yoshidagilar ko‘pincha o‘zaro norasmiy muloqotda yangi slenglarni yaratadi yoki mavjudlarini modifikatsiya qiladi. Ularda karochi, zòr, bomba, layk, daxshat kabi umumiy ijtimoiy va emotsional ifodali slenglar ko‘p uchraydi. Bu yoshda sleng ijtimoiy qabul qilinish va guruhga moslashuv vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalar (25 ta holat)

Talabalar o‘z soha, muassasa va muloqot doirasiga mos holda sleng yaratishadi. Masalan: dekanat bosdi, kontraktndan uchdi, g‘isht, kursdosh, vizyo bo‘ldi kabi birikmalar talaba hayoti va madaniy iqlimi bilan bog‘liq. Talaba slengi ko‘pincha akademik kontekstdagi

norasmiylikni anglatadi.

Ijtimoiy holati past/o'rta bo'lganlar (16 ta holat)

Bu qatlamda sleng ko'pincha amaliy, jargonga yaqin va qo'polroq xarakterga ega bo'ladi. Ko'pincha bu so'zlar qattiq mehnat, iqtisodiy muammolar, hayotiy tajribaga asoslangan hazil yoki kinoyani bildiradi. Masalan: nal, bormasa bo'maydi, zakaz berildi, obro'si yo'q kabi.

“Bilmayman” javobi (16 ta holat)

Bu javob, ehtimol, respondentning slengning ijtimoiy qatlamlar bilan qanday bog'liq ekanligi to'g'risida aniq tasavvurga ega emasligini ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, til va ijtimoiy ong orasidagi bog'liqlikni har doim anglab yetish oson emasligini ko'rsatadi. Yuqoridagi natijalar shuni anglatadiki, sleng har xil ijtimoiy qatlamlarda turlicha rol o'ynaydi. Internetga doimiy ulangan guruhlar – sleng yaratilishida faolroq, maktab o'quvchilari – uni tez tarqatuvchilar, talabalar esa uni ijtimoiy mavqega qarab shakllantiruvchi guruh sifatida ko'riladi. Shu bilan birga tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalar (tugallanmagan oliy ta'lim vakillari) slengdan eng faol foydalanuvchi qatlam hisoblanadi. Bu holat ularning internet va ijtimoiy tarmoqlarda yuqori faolligi, norasmiy muloqotdagi rollari va tengdoshlar bilan aloqalaridagi til moslashuvi bilan izohlanadi.

Oliy ma'lumotga ega bo'lgan respondentlar esa slengni nisbatan ehtiyotkorlik bilan, kontekstga qarab va rasmiylik chegarasidan chiqmaslik sharti bilan qo'llashadi. Bu guruh til me'yorlariga nisbatan sezgirroq bo'lib, nutqda stilistik muvozanatni saqlashga intilishadi. O'rta maxsus va umumiy o'rta ma'lumotli guruhlar orasida esa slengdan foydalanish chastotasi pastroq bo'lib, bu ularning ijtimoiy rollari va madaniy nutq muhitining o'ziga xosligidan dalolat beradi. Quyidagi jadvalda ma'lumot darajalari va slengdan foydalanish chastotalari keltirilgan. Bu ko'rsatkichlar orqali ma'lumot darajasi yuqori bo'lgan sari slengdan foydalanishdagi ehtiyotkorlik oshishi kuzatiladi. Shuningdek, talabalar orasida slengning emotsional, baholovchi va o'zlikni ifodalovchi funksiyalari kuchliroq aks etadi (1-jadval).

1-jadval. Ma'lumotga ko'ra slengdan foydalanish chastotasi.

Ma'lumot darajasi	Doim	Ba'zi-ba'zida	Juda kam	Yo'q
Tugallanmagan oliy (talabalar)	5	39	22	13
Oliy ma'lumotli	5	4	11	9
O'rta maxsus	0	3	4	0
Umumiy o'rta	1	3	2	0

Yoshlarning ta'lim darajasi ularning tilga bo'lgan munosabati, uslubiy tanlovlari hamda kommunikativ vositalardan foydalanish strategiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, yoshlar tilida sleng zamonaviylikni ifodalash, o'zaro yaqinlikni ta'minlash, ijtimoiy tenglikni aks ettirish va guruh ichidagi madaniy kodlash vositasi sifatida muhim funksiyalarni bajaradi. Shu bilan birga, yoshlarning kimlar bilan muloqotda slengdan foydalanishi yoki undan tiyilishi ham turli omillarga bog'liq holda farqlanadi. Bu farqlarni aniqlash maqsadida o'tkazilgan so'rovnomadagi "Asosan kimlar bilan muloqotda slenglardan foydalanasiz?" degan savolga respondentlar tomonidan berilgan javoblar tahlili asosida slengdan foydalaniladigan auditoriyalar aniqlab olindi (2-jadval).

2-jadval. Yoshlar muloqotida slengdan foydalanishning tabaqaviy ko'rsatkichlari.

Auditoriya	Respondentlar soni	Ulush (%)
Do'stlar bilan	86	43.0
Sinfdoshlar/kursdoshlar bilan	55	27.5
Oila a'zolari bilan	22	11.0
Ijtimoiy tarmoqlar orqali	18	9.0
Slengdan foydalanmayman	16	8.0

Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlar nutqida sleng eng ko'p do'stlar davrasida (43%) qo'llanadi. Bu esa, norasmiy muloqotning erkinligi, ochiqligi va emotsional boyligini ko'rsatadi. Do'stlar orasida ishlatiladigan sleng ko'pincha ichki muloqot kodi vazifasini bajarib, guruhga xos identitetni ifodalaydi, shuningdek, suhbat jarayonida tezkorlik va moslashuvchanlikni ta'minlovchi pragmatik birlik sifatida xizmat qiladi.

Sinfdoshlar va kursdoshlar (27,5%) o'rtasida sleng ta'lim muhitining norasmiy qatlamini tashkil qiladi. Bunday vaziyatlarda u tenglikni ta'kidlovchi til vositasi, ijtimoiy rollarni belgilovchi marker hamda rasmiy ta'lim jarayoniga nisbatan "yumshoq qarshilik" sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat yoshlar orasida tilning ijtimoiy funktsiya bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Oila a'zolari bilan muloqotda (11%) slengning qo'llanishi chegaralangan bo'lsa-da, mavjudligi avlodlararo til tafovutlaridan dalolat beradi. Oila muhitida slengning ishlatilishi ko'pincha yoshlarning shaxsiy yaqinligi yoki erkin muloqot darajasiga qarab shakllanadi. Shu bilan birga, madaniy qadriyatlar va milliy mentalitet til qo'llanishiga ma'lum darajada to'siq bo'lishi ham mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar (9%) esa slengning raqamli yozma shaklini kengaytirgan maydon sifatida ajralib turadi. Chatlar, postlar

va izohlarda sleng nafaqat kulgili yoki ironik bo'yoqlar beradi, balki jamoaviylik hissini mustahkamlaydi. Bu jarayonda tilning emotsional-ekspressiv vazifasi kuchayadi.

Slengdan umuman foydalanmaslik (8%) esa tilga konservativ yondashuvning belgisi bo'lib, odatda, kattaroq yoshdagilar yoki madaniyati qat'iy me'yorlarga asoslangan shaxslar tomonidan kuzatiladi. Ular slengni madaniy nuqtayi nazardan nomaqbul yoki odobsizlik deb baholashi ehtimol.

Slengning qo'llanishi nafaqat ijtimoiy guruhga, balki muhit va vaziyatga ham bevosita bog'liqdir. Masalan, norasmiy davralarda sleng faol ishlatilsa, yarim rasmiy yoki oilaviy vaziyatlarda u ko'proq cheklangan holda namoyon bo'ladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va globalizatsiya jarayonlari o'zbek yoshlarining til tajribasiga inglizcha yoki ruscha elementlarni kiritib, yangi gibridd sleng shakllarini yuzaga chiqarmoqda. Bu jarayon slengni faqat ichki ijtimoiy guruh tili emas, balki global madaniyat ta'sirining ifodasi sifatida ham ko'rsatadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sleng yoshlar uchun oddiy nutqiy vosita emas, balki ijtimoiy-madaniy identitet, guruhiy birdamlik va emotsional yaqinlikni mustahkamlovchi til shakli hisoblanadi. U, asosan, do'stlar va sinfdoshlar muhitida faol qo'llanadi, biroq oilaviy va konservativ muhitlarda ehtiyotkorlik bilan ishlatiladi. Shuningdek, raqamli kommunikatsiyada slengning yangi shakllari shakllanib, uning funksional imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Demak, slengni o'rganish orqali nafaqat til hodisasini, balki yoshlarning ijtimoiy psixologik holati, madaniy qarashlari va zamonaviylikka moslashuv darajasini ham tahlil qilish mumkin.

Adabiyotlar

- Halliday M.A.K. 1978. *Language as Social Semiotic*. – London: Edward Arnold.
- Mattiello E. 2008. *An Introduction to English Slang*. – Milano: Polimetrica.
- Labov W. 2001. *Principles of Linguistic Change: Social Factors*. – Oxford: Blackwell.
- Eble C. 1996. *Slang and Sociability: In-group Language among College Students*. – Chapel Hill: The University of North Carolina Press.
- Bourdieu P. 1991. *Language and Symbolic Power*. – Cambridge: Polity Press.

The socio-stratification of youth slang

Umriniso Pulatova¹

Abstract

The article analyzes the socio-stratificational features of slang use in the speech of Uzbek youth. The study examines which social groups most actively employ slang units and the communicative functions they fulfill. Based on survey and observation methods, the collected data were statistically analyzed to identify the use of slang in interactions among friends, classmates, family members, and in social media contexts. The results show that slang is most frequent in peer communication, shaped by social status, and plays a key role in the emergence of new lexical items in digital environments. Moreover, slang serves as a pragmatic tool for expressing personal status, highlighting group affiliation, and enhancing emotional expressiveness. The findings contribute to a deeper sociolinguistic understanding of youth speech and its social stratification.

Keywords: *slang, social stratification, youth speech, informal communication, sociolinguistics, communicative context, emotional expression, sociolect, modern lexicon, youth subculture, pragmatic unit.*

References

- Halliday M.A.K. 1978. *Language as Social Semiotic*. – London: Edward Arnold.
- Mattiello E. 2008. *An Introduction to English Slang*. – Milano: Polimetrica.
- Labov W. 2001. *Principles of Linguistic Change: Social Factors*. – Oxford: Blackwell.
- Eble C. 1996. *Slang and Sociability: In-group Language among College Students*. – Chapel Hill: The University of North Carolina Press.
- Bourdieu P. 1991. *Language and Symbolic Power*. – Cambridge: Polity Press.

¹ *Umriniso Pulatova* – Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, PhD Candidate (2nd year), Specialty: 10.00.01 – Uzbek Language.

E-mail: maxsuddenovvsardorrr@gmail.com

For reference: Pulatova U. Gender-specific characteristics of slang usage among uzbek youth. *Uzbekistan: Language and Culture. Linguistics*. 2025-3: 125-132.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochtasiga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (Abstrakt) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

V.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

VII.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*. Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mamatov 2018, 11]

Ikki mualliftomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VII.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarimas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Aminov 2018, 248]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida

aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. "Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi". *UZA: O'zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: Language and Culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of

the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.
'

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of The Chicago Manual of Style, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: Title of the Book. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified "down" style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, "Author's own" translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of University of Chicago Readings in Western Civilization, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago>.

edu/founders

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE

Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439-58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405-50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text (“As of July 19, 2008, the McDonald’s Corporation listed on its website . . .”). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. “Google Privacy Policy.” Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald’s Corporation. 2008. “McDonald’s Happy Meal Toy Safety Facts.” <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald’s 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.linguistics.tsuull.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com